Turizm sohasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, xizmatlar bozorini kengaytirish va hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur sohaning barqaror rivojlanishi esa turizm infratuzilmasining holati, uni modernizatsiya qilish imkoniyatlari hamda ushbu jarayonlarga investitsiya resurslarini samarali jalb etish bilan bevosita bog‘liq. Mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, transport va yo‘l infratuzilmasi, ovqatlanish va servis obyektlari, rekreatsiya zonalari hamda turistik destinatsiyalarga xizmat ko‘rsatuvchi boshqa infratuzilma elementlarining rivojlanganlik darajasi hududning turistik salohiyatidan to‘liq foydalanish imkoniyatini belgilaydi. Shu sababli turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etish va mavjud investitsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalarini baholash zamonaviy turizm iqtisodiyotining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasiga xususiy va xorijiy kapitalni jalb qilish, yangi turistik obyektlarni tashkil etish hamda mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. UN Tourism tomonidan O‘zbekistonning turizm investitsion salohiyatiga bag‘ishlangan tadqiqotda mamlakatda 2019–2023-yillar davomida amalga oshirilgan turizm bilan bog‘liq investitsiya loyihalari alohida qayd etilib, turizm sohasi investorlar uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida baholangan [1]. Bu holat turizmni nafaqat xizmat ko‘rsatish sohasi, balki hududiy investitsiyalarni faollashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va turizm bilan bog‘liq tarmoqlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kengaytiruvchi muhim omil sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Surxondaryo viloyati tarixiy-madaniy meros obyektlari, tabiiy va rekreatsion resurslari, tog‘li hududlari hamda transchegaraviy geografik joylashuvi bilan turizmni rivojlantirish uchun salmoqli imkoniyatlarga ega. Mavjud turistik salohiyatdan yanada samarali foydalanish zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, transport va servis xizmatlarini takomillashtirish, yangi joylashtirish vositalarini tashkil etish va turistik hududlarga investitsiyalarni faol jalb etishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-439-son[1] qarorida Surxondaryo viloyatining tog‘li va tog‘oldi hududlarida mavjud turistik salohiyatdan samarali foydalanish, master-rejalar asosida mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, sog‘lomlashtirish, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, sanatoriylar hamda zamonaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirish vazifalari belgilangan [2]. Mazkur chora-tadbirlar viloyatda turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etish masalasining strategik ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu bilan birga, turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonini amalga oshirilayotgan alohida loyihalar yoki ajratilgan moliyaviy mablag‘lar hajmi bilan bir qatorda, boshqa muhim ko‘rsatkichlar asosida ham baholash maqsadga muvofiq. Investitsiyalar hajmining vaqt davomida o‘zgarishi, ularning o‘sish sur’atlari, moliyalashtirish manbalari tarkibi, turizm infratuzilmasining alohida yo‘nalishlariga taqsimlanishi hamda investitsiya faolligidagi asosiy tendensiyalarni tizimli tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hududiy darajada investitsiya jarayonlarining dinamikasi va tarkibiy xususiyatlarini aniqlash mavjud imkoniyatlarni asoslash hamda kelgusida investitsiyalarni jalb etishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-439-son qarori: https://lex.uz/uz/docs/-7263277

Mavjud tadqiqotlarda O‘zbekistonning turizm salohiyati, turizm xizmatlarining rivoji va turistik destinatsiyalarning investitsion jozibadorligiga katta e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, Surxondaryo viloyati misolida turizm infratuzilmasiga jalb qilinayotgan investitsiyalarning amaldagi holati, tarkibi va rivojlanish tendensiyalarini hududiy statistik ma’lumotlar asosida kompleks baholash yo‘nalishidagi tadqiqotlarni yanada kengaytirish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur jihat tadqiqotning ilmiy yo‘nalishini belgilaydi hamda viloyatda turizm infratuzilmasini moliyalashtirish jarayonlarini empirik jihatdan o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etishning amaldagi holatini statistik va qiyosiy tahlil qilish, investitsiyalar dinamikasi hamda tarkibiy o‘zgarishlarini aniqlash va ularning rivojlanish tendensiyalarini baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari viloyatda turizm infratuzilmasini moliyalashtirishning mavjud holatini baholash, investitsiya faolligiga xos asosiy tendensiyalarni aniqlash hamda istiqbolda investitsiya resurslarini jalb etishning ustuvor yo‘nalishlarini asoslashga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda hududning turistik jozibadorligi, turistlar oqimi, xizmatlar sifati va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Xususan, so‘nggi yillardagi tadqiqotlarda transport-kommunikatsiya infratuzilmasi, joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish va rekreatsiya obyektlariga yo‘naltirilgan investitsiyalarning turizm rivojlanishidagi o‘rni alohida e’tirof etiladi.

Q.H. Nguyen (2021) turizm infratuzilmasiga investitsiyalarning xalqaro turistlarni jalb qilishga ta’sirini Vyetnam misolida tadqiq etgan. Muallif 1995–2019-yillar ma’lumotlari asosida transport va kommunikatsiya infratuzilmasi, mehmonxona va restoranlar hamda rekreatsiya obyektlariga yo‘naltirilgan investitsiyalarni alohida komponentlar sifatida baholagan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, uzoq muddatli davrda mazkur uch yo‘nalishga kiritilgan investitsiyalar xalqaro turistlar oqimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, transport va kommunikatsiya infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ta’siri yuqoriroq ekani aniqlangan [3]. Ushbu yondashuv turizm infratuzilmasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarni faqat umumiy hajmi bo‘yicha emas, balki ularning tarkibiy yo‘nalishlari bo‘yicha ham tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

L.P. Machado va A. Almeida (2021) infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalarning qishloq va periferik hududlarda turizmni rivojlantirishdagi rolini Madeira misolida tadqiq qilgan. Mualliflarning fikricha, turizm obyektlari va ularga xizmat qiluvchi infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar hududlarning turistik imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin, bunda investitsiyalarning barqaror turistik natijalarga erishishdagi samaradorligi turistik talabning shakllanganlik darajasi hamda xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘rtasidagi hamkorlik bilan chambarchas bog‘liq [4]. Bu xulosa hududiy turizm siyosatida investitsiyalar hajmi bilan bir qatorda, ulardan samarali foydalanish va investitsiyalarning hududdagi real turistik talabga muvofiqligini ham hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi.

Ihtisham ul Haq, J. Pardaev, P. Allayarov va S. Munir (2024) Markaziy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy innovatsiyalar va infratuzilmaning kiruvchi turizmga ta’sirini empirik jihatdan o‘rgangan. Tadqiqotda moliyaviy innovatsiyalar va savdo ochiqligi turizm rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan, infratuzilmaning ta’siri esa hududlarning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra turlicha namoyon bo‘lishi qayd etilgan [5]. Ushbu natija turizm infratuzilmasiga investitsiyalar samaradorligi hududning iqtisodiy muhiti, moliyaviy imkoniyatlari va boshqa institutsional omillar bilan birgalikda shakllanishini ko‘rsatadi. Demak, investitsiyalar hajmining o‘sishini turizm rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida boshqa iqtisodiy va institutsional omillar bilan uyg‘un holda baholash maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston sharoitida N. Arabov, D. Nasimov, B. Janzakov, K. Khomitov, G. Utemuratova, D. Abduraimov va B. Ismailov (2024) turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasini mamlakatning 14 ta hududi misolida kompleks baholagan. Tadqiqotda transport, joylashtirish vositalari, turistik diqqatga sazovor joylar, qulayliklar va turizm xizmatlarining holati ekspert baholash va so‘rov usullari yordamida tahlil qilingan. Mualliflar hududlarni infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga qarab tasniflab, turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi va infratuzilma sifati o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlaganlar [6]. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston hududlarida infratuzilmani differensial baholash muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, turizm infratuzilmasiga investitsiyalar transport imkoniyatlarini yaxshilash, joylashtirish va servis quvvatlarini kengaytirish hamda destinatsiyaning umumiy jozibadorligini oshirish orqali turizm rivojlanishiga ta’sir qiladi. Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlarda infratuzilmaga investitsiyalarning turistlar oqimi va hududiy rivojlanishga ta’siri keng o‘rganilgan. Surxondaryo viloyati misolida esa turizm infratuzilmasiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi, ularning yillar kesimidagi dinamikasi, tarkibiy

o‘zgarishlari va rivojlanish tendensiyalarini kompleks statistik baholash yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ilmiy yo‘nalish ushbu tadqiqotning mazmuni va zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning obyekti Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlari hisoblanadi. Tadqiqotda viloyatda turizm infratuzilmasining rivojlanishi, investitsiyalar hajmi va ularning yillar davomida o‘zgarish tendensiyalarini baholashga asosiy e’tibor qaratildi. Dissertatsiya tuzilmasida ham Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasiga investitsiyalar dinamikasi hamda moliyaviy instrumentlardan foydalanishni baholash alohida yo‘nalish sifatida belgilangan.

Empirik tahlil uchun, asosan, 2019–2024-yillarni qamrab oluvchi statistik ma’lumotlardan foydalaniladi. Ushbu davr investitsiyalar hajmidagi o‘zgarishlarni, pandemiya davridagi o‘ziga xos dinamikani va undan keyingi tiklanish jarayonlarini qiyosiy baholash imkonini beradi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining investitsiyalar, turizm, xizmatlar sohasi va hududiy rivojlanishga oid rasmiy statistik ma’lumotlari tashkil etadi [7].

Tadqiqotda statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil va grafik usullardan foydalaniladi. Dastlab Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning yillar kesimidagi hajmi tizimlashtirilib, ularning mutlaq va nisbiy o‘zgarishlari aniqlanadi. Dinamik tahlil yordamida investitsiyalar hajmining yillik o‘sish sur’atlari hisoblanib, investitsiya faolligining turli davrlardagi o‘zgarish tendensiyalari baholanadi.

Yillik o‘sish sur’ati quyidagi formula asosida aniqlanadi:

**O‘sish sur’ati = (joriy yil ko‘rsatkichi / oldingi yil ko‘rsatkichi) × 100**

Shuningdek, turizm infratuzilmasini moliyalashtirish manbalarining tarkibiy xususiyatlarini baholash uchun tarkibiy tahlil usuli qo‘llaniladi. Bunda mavjud ma’lumotlardan kelib chiqib, investitsiyalarning davlat mablag‘lari, korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari, bank kreditlari, xorijiy investitsiyalar hamda boshqa moliyalashtirish manbalari bo‘yicha ulushi tahlil qilinadi. Dissertatsiya rejasida ham amaldagi moliyalashtirish manbalari tarkibini foizlarda baholash nazarda tutilgan.

Har bir moliyalashtirish manbasining jami investitsiyalar tarkibidagi ulushi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

**Tarkibiy ulush = (muayyan manba bo‘yicha investitsiya / jami investitsiya) × 100**

Qiyosiy tahlil yordamida tadqiqot davridagi alohida yillar ko‘rsatkichlari o‘zaro solishtiriladi. Bunda investitsiyalar hajmining o‘zgarishi, o‘sish sur’atlari va moliyalashtirish manbalari tarkibidagi siljishlarga e’tibor qaratiladi. Olingan natijalarni vizual ifodalash maqsadida statistik jadvallar, ustunli diagrammalar va dinamik grafiklardan foydalaniladi.

Turizmga oid statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish va talqin qilishda UN Tourism tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro turizm statistikasi metodologik yondashuvlari ham hisobga olinadi [8]. Bu yondashuv turistik faoliyatga oid ko‘rsatkichlarni yagona mezonlar asosida tizimlashtirish va ularni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, qo‘llanilgan metodologiya Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasiga jalb etilgan investitsiyalarning hajmi, dinamikasi, o‘sish sur’atlari va moliyalashtirish tarkibini kompleks baholash hamda tadqiqot davrida shakllangan asosiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasining rivojlanish holatini baholashda joylashtirish vositalari, ulardagi nomer va o‘rinlar soni, xizmat ko‘rsatilgan turistlar hajmi hamda turizm subyektlari faoliyatining dinamikasi muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Rasmiy statistik ma’lumotlar 2020–2024-yillarda viloyat turizm infratuzilmasida sezilarli tarkibiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi [9].

Xususan, 2020-yilda Surxondaryo viloyatida 27 ta mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositasi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2021-yilda ularning soni 30 ta, 2022-yilda 64 ta, 2023-yilda 66 ta va 2024-yilda 80 tani tashkil etgan. Shunday qilib, 2020–2024-yillar davomida mazkur turdagi joylashtirish obyektlari soni qariyb 3 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2021–2022-yillarda obyektlar sonining 30 tadan 64 taga ko‘payishi turizm infratuzilmasini kengaytirish jarayoni tezlashganligini ko‘rsatadi. 2024-yilning o‘zida esa 2023-yilga nisbatan mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni 14 taga yoki 21,2 foizga oshgan [9].

Joylashtirish vositalarining ko‘payishi ulardan foydalangan shaxslar soni dinamikasida ham aks etgan. Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish obyektlarida joylashtirilgan shaxslar soni 2020-yildagi 19,4 ming kishidan 2021-yilda 26,9 ming kishiga, 2022-yilda 79,3 ming kishiga, 2023-yilda 88,0 ming kishiga va 2024-yilda 91,6 ming kishiga yetgan. Natijada 2020–2024-yillarda ushbu ko‘rsatkich qariyb 4,7 barobarga oshgan. 2024-yilda joylashtirilgan shaxslar soni 2023-yilga nisbatan 3,6 ming kishiga yoki 4,1 foizga ko‘paygan. Ushbu

dinamika joylashtirish infratuzilmasining miqdoriy kengayishi bilan bir qatorda, unga boʻlgan talabning ham oʻsib borayotganligini koʻrsatadi [9].

Nomer fondi dinamikasi ham turizm infratuzilmasining rivojlanishini ifodalaydi. Viloyatdagi mehmonxona va unga oʻxshash obyektlardagi nomerlar soni 2020-yilda 475 tani tashkil etgan boʻlsa, 2022-yilda 1 212 taga, 2023-yilda 1 252 taga va 2024-yilda 1 260 taga yetgan. Shu bilan birga, joylar sonining dinamikasida tarkibiy oʻzgarish kuzatilgan: 2023-yilda 2 563 ta boʻlgan joylar soni 2024-yilda 2 464 tani tashkil etgan [9]. Mazkur holat infratuzilma obyektlari sonining koʻpayishi bilan bir qatorda, mavjud joylashtirish quvvatlarining tarkibiy jihatdan optimallashib borayotganligini koʻrsatadi.

2024-yilgi hududiy taqsimot tahlili turizm infratuzilmasining viloyat hududlari boʻyicha oʻziga xos tarzda shakllanganligini koʻrsatdi. Jami 80 ta mehmonxona va shunga oʻxshash joylashtirish vositasining 38 tasi Termiz shahrida, 14 tasi Boysun tumanida va 6 tasi Denov tumanida joylashgan. Termiz shahrining oʻzida 52,9 ming kishi mehmonxona va shunga oʻxshash vositalarda joylashtirilgan boʻlib, bu viloyat boʻyicha jami 91,6 ming kishining yarmidan koʻpini tashkil etadi. Ayrim tumanlarda esa bunday joylashtirish obyektlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun qoʻshimcha imkoniyatlar mavjud [9]. Mazkur natija turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni kelgusida hududlar kesimida yanada muvozanatli taqsimlash imkoniyatlarini koʻrsatadi.

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining rivojlanishida ham ijobiy tendensiyalar mavjud. 2024-yilda viloyatda bunday obyektlar soni 25 tani tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 66,7 foizga koʻpaygan. Ulardagi nomerlar soni 480 taga, joylar soni 2 103 taga yetgan, joylashtirilgan shaxslar soni esa 31,1 ming kishini tashkil qilgan. 2023-yilga nisbatan mazkur toifadagi joylashtirilgan shaxslar soni 9,2 foizga oshgan [9]. Bu, ayniqsa, sanatoriy-kurort, sogʻlomlashtirish va rekreatsion turizm infratuzilmasini kengaytirish uchun investitsion talab mavjudligini koʻrsatadi.

Individual va boshqa joylashtirish vositalari segmentida oʻsish yanada yuqori boʻlgan. 2020–2023-yillarda ularning soni 2 tadan oshmagan boʻlsa, 2024-yilda 7 taga yetgan. 2024-yilda mazkur obyektlarda 93 ta nomer va 711 ta joy mavjud boʻlib, 2,1 ming kishi joylashtirilgan. 2023-yil bilan taqqoslaganda, obyektlar soni 3,5 barobarga, joylar soni 36,5 foizga, joylashtirilgan shaxslar soni esa 75,4 foizga koʻpaygan [9]. Ushbu holat kichik turizm biznesi, oilaviy va individual joylashtirish shakllarining viloyat turizm bozoridagi roli izchil ortib borayotganligini koʻrsatadi.

Turistik faoliyat koʻrsatkichlarida yoʻnalishlar boʻyicha oʻziga xos dinamikalar kuzatilgan. 2024-yilda viloyatda 14 ta turistik firma va tashkilot faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, ushbu tashkilotlar tomonidan xizmat koʻrsatilgan shaxslar soni 3,4 foizga, sotilgan sayyohlik yoʻllanmalari soni esa 1,3 foizga oshgan [9]. Mazkur koʻrsatkichlar joylashtirish infratuzilmasining jadal kengayishi sharoitida turistik operator va firmalar faoliyatini yanada rivojlantirish hamda infratuzilma rivoji bilan turistik xizmatlarni tashkil etish tizimi oʻrtasidagi oʻzaro uygʻunlikni kuchaytirish uchun qoʻshimcha imkoniyatlar mavjudligini koʻrsatadi.

Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida investitsiyalarni joylashtirish vositalarini kengaytirish bilan bir qatorda, transport va unga bogʻliq infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilishga ham yoʻnaltirish muhim hisoblanadi. M.U. Karimov, J.Y. Jeong, Y. Sobirov va C. Choi tomonidan Oʻzbekiston misolida amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga koʻra, transport infratuzilmasining rivojlanganligi xalqaro turistlar oqimiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Mualliflar samarali transport tizimi transport xarajatlari va safar bilan bogʻliq cheklovlarni kamaytirib, turistik destinatsiyalardan foydalanish imkoniyatini oshirishini taʼkidlaydilar [10]. Mazkur natijalar Surxondaryo viloyatida ham turizm infratuzilmasiga jalb etilayotgan investitsiyalarni mehmonxona va joylashtirish obyektlari bilan bir qatorda, transport infratuzilmasi bilan kompleks bogʻlash muhimligini koʻrsatadi.

Umuman olganda, oʻtkazilgan tahlil Surxondaryo viloyatida 2020–2024-yillar davomida turizm infratuzilmasining miqdoriy kengayishi barqaror ijobiy tendensiyaga ega boʻlganligini koʻrsatdi. Mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari sonining koʻpayishi, turistlarni joylashtirish hajmining oshishi hamda ixtisoslashtirilgan va individual joylashtirish segmentlarining kengayishi investitsion faollik uchun shakllanayotgan bozor imkoniyatlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining Termiz shahri va ayrim turistik hududlarda yuqori darajada jamlanganligi boshqa hududlarda ham joylashtirish obyektlarini rivojlantirish, investitsiyalarni hududiy diversifikatsiya qilish, kichik turizm biznesini ragʻbatlantirish va turistik xizmatlar zanjirini kompleks rivojlantirish uchun istiqbolli imkoniyatlar mavjudligini koʻrsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻtkazilgan tahlillar Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasining soʻnggi yillarda izchil rivojlanib borayotganini koʻrsatdi. Xususan, mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari sonining koʻpayishi, ularda xizmat koʻrsatilgan shaxslar sonining oshishi, ixtisoslashtirilgan hamda individual joylashtirish vositalarining kengayishi hududda turizm infratuzilmasiga boʻlgan talab ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga,

turizm infratuzilmasining, asosan, Termiz shahri va ayrim turistik hududlarda jamlangani boshqa tumanlarda joylashtirish vositalari va turistik xizmatlarni yanada rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish muhimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari turizm infratuzilmasini rivojlantirishda investitsiyalarni obyektlar sonini ko'paytirish bilan bir qatorda, hududiy jihatdan muvozanatli va kompleks yo'naltirish muhimligini ko'rsatdi. Ayniqsa, turistik salohiyati yuqori va infratuzilmasini yanada rivojlantirish imkoniyatlariga ega tumanlarda mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, transport, umumiy ovqatlanish, savdo va ko'ngilochar xizmatlar obyektlarini rivojlantirish investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi maqsadga muvofiq. Surxondaryo viloyatining tog'li va rekreatsion hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratishga qaratilgan amaldagi davlat dasturlari ham ushbu yo'nalishdagi investitsiya faolligini kuchaytirish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasiga jalb qilinadigan investitsiyalarni hududiy diversifikatsiya qilish zarur. Bunda investitsiya loyihalarini Termiz shahri va yirik turistik markazlar bilan bir qatorda, turistik resurslarga ega hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud tumanlarda ham amalga oshirishga ustuvorlik berish lozim.

Ikkinchidan, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining turizm infratuzilmasidagi ishtirokini kengaytirish maqsadida oilaviy mehmon uylari, kichik mehmonxonalar, transport va servis xizmatlarini tashkil etishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyaviy va tashkiliy jihatdan rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etishda davlat mablag'lari bilan bir qatorda, xususiy investitsiyalar, bank kreditlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va boshqa muqobil moliyalashtirish manbalaridan foydalanishni kengaytirish lozim. Bu infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va davlat budjeti mablag'laridan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

To'rtinchidan, viloyatda turizm infratuzilmasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar samaradorligini muntazam monitoring qilish tizimini takomillashtirish zarur. Bunda investitsiyalar hajmi bilan bir qatorda, yangi tashkil etilgan turizm obyektlari soni, yaratilgan ish o'rinlari, xizmat ko'rsatilgan turistlar soni, joylashtirish quvvatlari va hududlar kesimidagi o'zgarishlarni asosiy baholash mezonlari sifatida qo'llash maqsadga muvofiq.

Umuman, Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etishning mavjud ijobiy tendensiyalarini saqlab qolish bilan birga, investitsiyalarni hududiy va moliyaviy jihatdan diversifikatsiya qilish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda investitsiya loyihalarining natijadorligini tizimli baholash viloyatning turistik salohiyatidan yanada samarali foydalanishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. World Tourism Organization. *Tourism Doing Business: Investing in Uzbekistan*. – Madrid : World Tourism Organization, 2023. – DOI: 10.18111/9789284424702.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Surxondaryo viloyatining tog'li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 16-dekabrdagi PQ–439-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7263277
3. Nguyen Q. H. Impact of investment in tourism infrastructure development on attracting international visitors: a nonlinear panel ARDL approach using Vietnam's data // *Economies*. – 2021. – Vol. 9, No. 3. – Art. 131. – DOI: 10.3390/economies9030131.
4. Almeida A., Machado L. P. Rural development and rural tourism: the impact of infrastructure investments // *Peripheral Territories, Tourism, and Regional Development*. – London : IntechOpen, 2021. – DOI: 10.5772/intechopen.95610.
5. Ul Haq I., Pardaev J., Allayarov P., Munir S. The impact of financial innovation and infrastructure on inbound tourism in Central Asia // *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*. – 2024. – Vol. 10, No. 1. – Art. 100175. – DOI: 10.1016/j.joitmc.2023.100175.
6. Arabov N., Nasimov D., Janzakov B., Khomitov K., Utemuratova G., Abduraimov D., Ismailov B. Shaping the future of Uzbekistan's tourism: an in-depth analysis of infrastructure influence and strategic planning // *Journal of Eastern European and Central Asian Research*. – 2024. – Vol. 11, No. 1. – P. 53–65. – DOI: 10.15549/jeecar.v11i1.1478.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari: 2024-yil* [Elektron resurs]. – Toshkent, 2025. – URL: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.

8. United Nations. *International Recommendations for Tourism Statistics 2008* / United Nations, World Tourism Organization. – New York : United Nations, 2010. – Series M, No. 83/Rev. 1.
9. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. *Surxondaryo viloyatida turizm va dam olishning rivojlanishi: 2024-yil uchun* [Elektron resurs] : press-reliz. – Termiz, 2025. – URL: Surxondaryo viloyatida turizm va dam olishning rivojlanishi.
10. Karimov M. U., Jeong J. Y., Sobirov Y., Choi C. The role of transportation infrastructure in the development of international tourism in Uzbekistan // *Journal of Tourism & Development*. – 2023. – Vol. 41. – P. 403–420. – DOI: 10.34624/rtd.v41i0.30576.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 8/1**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.


El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07


Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz